

Oziq ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategic rivojlanish tadqiqotlar xalqaro markazi bo'lim boshlig'i, i.f.n, katta i.x N Askarov taqrizi ostida

**Seytimbetova Zibaxon Abdiganiyevna**  
**Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida**  
**strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro**  
**markazi Ilmiy kotibi, t.f.f.d, PhD**  
**e-mail: [shoxujaeva@mail.ru](mailto:shoxujaeva@mail.ru)**

**Bobur To'laboyev-Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi bo'lim boshlig'i**

---

## **O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya:** Raqamli banklar zamonaviy kishilar hayot faoliyatining barcha sohalariga, birinchi navbatda, mobil qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar, axborot servislari, elektron tijorat, internet-savdo h.k.ga kirib borishga intiladi. Ushbu maqolada mijozlarga masofaviy bank xizmatlari ko'rsatish va onlayn-xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirishga qaratilgan takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Raqamli iqtisodiyot, elektron to'lov tizimlari, kriptovalyutalar, raqamli banklar, elektron tijorat, raqamli xizmat ko'rsatish, onlayn-xizmatlar, kripto-aktivlar.

---

## **ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЭЛЕКТРОННОЙ ТОРГОВЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**Аннотация:** Цифровые банки стремятся проникнуть во все сферы жизни современных людей, прежде всего, в мобильные устройства, социальные сети, информационные сервисы, электронную коммерцию, интернет-торговлю и т. д. В данной статье представлены предложения, направленные на развитие предоставления дистанционных банковских услуг и онлайн-сервисов клиентам.

**Ключевые слова:** Цифровая экономика, электронные платежные системы, криптовалюты, цифровые банки, электронная коммерция, цифровые услуги, онлайн-сервисы, крипто-активы.

---

## **FEATURES OF E-COMMERCE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN**

**Annotation:** Digital banks strive to penetrate all spheres of life of modern people, first of all, mobile devices, social networks, information services, e-commerce, internet trade, etc. This article provides proposals aimed at developing the provision of remote banking services and online services to customers.

**Keywords:** Digital economy, electronic payment systems, cryptocurrencies, digital banks, e-commerce, digital services, online services, crypto-assets.

---

**Kirish.** Hozirgi kunda jahon moliya tizimida birinchi navbatda, raqamli iqtisodiyotning elektron to'lov tizimlari, kriptovalyutalar va vositachilarsiz kreditlash kabi elementlar bozoridagi ulushning shiddatli o'sishi bilan bog'liq bo'lgan inqilobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Birinchi galda, mobil to'lovlar (2010 yildan 2016 yilgacha har yili qariyb ikki baravar o'sgan) va bir-birini (peer-to-peer) kreditlash (oxirgi 3 yil ichida AQShda 15 baravar o'sgan va 2015 yil aylanma \$78 mlrd.ga yetgan) hajmining tez o'sishi kuzatiladi. Ma'lumki, an'anaviy faoliyat

sohalaridan farqli ravishda, internet-kompaniyalarning bozor bahosi hech qanaday moddiy asosga ega emas va kompaniya qanchalik ko'p ma'lumot to'plagan bo'lsa, mahsulot ishlab chiqarish shunchalik arzonlashadi.

Jahon miqyosida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish geografiyasida ikki mamlakat yetakchi o'rinni egallab turibdi. Bular AQSH va Xitoy. Bu mamlakatlarga blokcheyn texnologiyasi bilan bog'liq bo'lgan barcha patentlarning 75 foizi, "Internet of Things (Narsalarinterneti)"ga sarflanadigan xarajatlarning 50 foizi va bulutli hisoblash ochiq texnologiyalari global bozorining 75 foizidan ortig'i to'g'ri keladi. Eng diqqatga sazovor tomoni shundaki, ular dunyodagi 70 ta eng yirik raqamli platformalarning bozor kapitallashuvining 90 foizini nazorat qilishadi. texnologiyalarda global ustunlikka intilishning oqibatida yuzaga keladi. AQSH va Xitoyning YAIM hajmi bo'yicha jahonda birinchi va ikkinchi o'rinlarni egallab turganligini e'tiborga olsak, raqamli texnologiyalarning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin.

Hozirgi paytda kompyuterlashtirish va yuqori texnologiyalar asrida raqamli iqtisodiyot hayotimizning har bir jabhasiga: sog'liqni saqlash, ta'lim, internet-banking, hukumatga daxldor bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek: "...raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o'tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi".

Iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish nafaqat bevosita axborot-kommunikasiya tarmog'ini, balki mamlakat xo'jalik faoliyatining barcha sohalarini ham qamrab oladigan keng qamrovli tendensiyaga aylanib bormoqda.

**Metodlar.** Tadqiqot jarayonida qiyosiy taqqoslash, mantiqiy va abstrakt fikrlash usullaridan foydalanildi.

**Natijalar.** Hozirgi kunda o'zining ofislari va bankomatlariga ega bo'lmagan raqamli banklar sonining jadal sur'atlari bilan o'sishi kuzatilmoqda. Raqamli banklarning asosiy konsepsiyalari qatoriga mijozlarga yo'naltirilganlik, takliflarni shaxsiylashtirish va harakatchanlik kiradi. Raqamli banklar zamonaviy kishilar hayot faoliyatining barcha sohalariga, birinchi navbatda, mobil qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar, axborot servislari, elektron tijorat, internet-savdo va h.k.ga kirib borishga intiladi. Raqamli bank o'z mijozlariga raqamli kanallardan foydalangan holda raqamli ko'rinishda mahsulot va xizmatlar taklif qiladi. Bunday bank infratuzilmasi raqamli kommunikasiyalar uchun optimallashtirilgan bo'lib, texnologiyalarning tez almashinuviga tayyor emas. Bunday banklarning asosiy vazifalari qatoriga mijozning uning hisob raqami holati va amalga oshirgan operatsiyalar haqida xabardor qilish, eng yaqin bo'linma, bankomat yoki kiosk izlab topish kiradi. Bundan tashqari, raqamli bank mijozlarga shunday onlayn-servis taqdim etishi lozimki, u barcha platformalarda ishlay olsin va asosan mobil qurilmalarga yo'naltirilsin.

Banking raqamli modelini takomillashtirishning yettita asosiy yo'nalishi mavjud, ya'ni:

- foydalanuvchilar servislari soddalashtirish;
- axborotni boshqarishning yangi usullari va vositalarini ishlab chiqish;

- moliya-texnika kompaniyalari bilan hamkorlik va raqobat;
- mobil to'lovlar rivojlanishi;
- innovasiyalarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish;
- innovation tartibga solish.

Raqamli xizmat ko'rsatishga to'liq o'tish nafaqat banklarga, balki xilma-xil bank xizmatlarini tezkor va qulay tarzda oladigan iste'mol-chilarga ham foyda keltiradi (xarajatlar pasayishi, muloqot doirasini qamrab olish imkoniyati, moslashuvchanlik, mijozni yaxshiroq bilish).

Respublika bank tizimida AKTga asoslangan innovation texnologiyalar faol joriy qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank Boshqarmasining 2016 yil uchun bank tizimi faoliyati yakunlari bo'yicha kengaytirilgan majlisida qayd etilishicha, moliya xizmatlari strukturasi bank xizmatlarining ulushi 88%ni tashkil qildi va 2015 yil bilan taqqoslaganda 1,2 baravarga o'sdi. Bundan tashqari, 2017 yilning 1-choragi uchun bank tizimi faoliyatining yakunlari bo'yicha bank xizmatlari safini kengaytirish va yaxshilash, zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini jadal joriy qilish bo'yicha muayyan vazifalar belgilab berildi (1-jadval).

### 1-jadval

**Keng polosali tizim orqali internetga ulangan tashkilotlar, 2018 yil (tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarining umumiy**

**soniga nisbatan, %da)**

Iqtisodiyot tarmoqlari	Jami	Maksimal kirish tezligi			Ulanish turi	
		256 Kbit/s-1,9 Mbit/s	2,0-100,0 Mbit/s	100Mbit/s dan yuqori	stasionar	mobil
Tadbirkorlik sohasi	81,6	21	51,3	9,3	78,3	47,4
Foydali qazilmalar qazib olish	85,5	17,4	60,7	7,4	80,8	55,9
Ishlab chiqarish sanoati	91,6	13,8	70,7	7,1	86,4	53,4
Energiya ta'minoti	84	21,6	57,9	4,6	79,5	49,3
Suv bilan ta'minlash; kanalizasiya tizimi, chiqindi larni yig'ish va utilizasiya qilish	71,2	27,5	39,7	4	67,1	36,4
Qurilish	81,8	19,1	55,8	6,9	75,3	50,4
Ulgurji va chakana savdo	90,2	25	51,6	13,6	84,9	58,4
Tashish va saqlash	81,1	20,3	52,2	8,6	77,2	45,1
Mexmonxona va umumiy ovqatlanish xizmati	78,9	21,5	50	7,3	72,9	51,2
Telekommunikasiya	91,5	7,3	46,3	37,9	89	59
Axborot texnologiyalar sohasi	93,9	10,5	64,7	18,8	88,8	48,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar	54,4	19,7	30,6	4,1	51,5	24,3
Professional, ilmiy, texnik faoliyat	85,1	20,4	55,7	9	80,9	43,8

Respublikada masofadan turib ko'rsatiladigan bank xizmatlaridan muntazam foydalanadigan mijozlar ulushi ko'plab qulay omillar tufayli o'shmoqda. Aholining moliyaviy savodxonlik darajasi pastligi va naqdsiz hisob-kitoblarga ishonmaslik bank xizmatlari ko'rsatishning raqamli kanallari tez tarqalishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, ta'kidlash joizki, banklarning raqamli xizmatlarga o'tishi uzoq muddatli va serxarajat, aksiyadorlarlar tomonidan faol qo'llab-quvvatlashni, katta miqdorda mablag'lar ajratishni talab qiladigan jarayon hisoblanadi.

Hozirgi kunda banklar o'z mijozlariga bir qator onlayn-xizmatlar va masofaviy bank xizmatlari ko'rsatmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki o'z mijozlariga quyidagi onlayn-xizmatlar taklif qilmoqda:

- 1) SMS orqali xabardor qilish;
- 2) e-Mail orqali xabardor qilish;
- 3) personal IVR-kabinet.

Bank sanoati – shiddat bilan raqamli rivojlanishga yorqin misollardan biri bo'la oladi. Deloitte konsalting kompaniyasi Rossiya banklari orasida yangi texnologiyalarni qo'llashni tadqiq etib, buning natijasida ekspertlar 11 ta innovatsiyani tanlab oldi va bir nechta guruhga ajratdi: xavfsizlik («aqli» identifikatsiya), tahlil (BigData, shaxsiy moliyaviy yordamida), raqamli texnologiyalar (onlayn-hamyon, muloqotsiz to'lov va h.k.), avtomatlashtirish (bo'linmalardagi robotlar), geymifikatsiya (mijozlar uchun o'yinlar va kvestlar) va P2P-kreditlash.

Lisensiya bo'yicha kripto-aktivlar aylanmasi. Kripto-aktivlar, ya'ni blokcheyndagi o'z qiymati va egasi bo'lgan qaydlar yig'indisi aylanmasi bilan endi faqat lisensiya asosiy shug'ullanish mumkin. Lisensiyalashga mayning, kripto-aktivlar bozoridagi xizmatlar va kripto-birjalar faoliyati kiradi. Bu yo'nalishlarni lisensiyalash NAPU tomonidan amalga oshiriladi.

Keyinroq O'zbekistonda kripto-birjalarga talablar tasdiqlandi: xorijiy korxonalar, «ustav miqdori» 30 000 EKIH (5,5 mlrd so'mdan ortiq), elektron tizim mavjudligi, savdoni amalga oshirish qoidalari, bozor kotirovkalaridan foydalanish va savdo haqida axborotni besh yil davomida saqlash.

Ta'kidlash joizki, valyutalar, obligatsiyalar, aksiyalar, vekselar va boshqa shu kabi moliyaviy vositalarning mutlaq ko'pchiligi ijtimoiy shartnoma shakli hisoblanadi va to'liq moddiy ta'minotga ega bo'lmaydi. Biroq agar klassik valyuta qiymati asosan uni emissiya qiladigan mamlakatning moliyaviy-iqtisodiy va siyosiy holatiga bog'liq bo'lsa, kripto-valyutalar qiymati faqat undan foydalanuvchilar kutadigan natijalar bilan belgilanadi.

**Munozara.** Mijozlarga masofaviy bank xizmatlari ko'rsatish va onlayn-xizmatlar ko'rsatish amaliyotining ko'rsatishicha, mahalliy banklar cheklangan turdagi onlayn-xizmatlar taklif qilmoqda, shuningdek, bank faoliyatini iste'molchilar talablariga omslashtirish juda sekin ro'y bermoqda. Agar mahalliy banklar raqamli kanallar bo'yicha xilma-xil moliyaviy xizmatlar taqdim etadigan bo'lsa, iste'molchilar bank servislaridan istalgan vaqtda va istalgan joyda foydalanish imkoniga ega bo'ladi. Mijozlarga masofaviy bank xizmatlari ko'rsatish va onlayn-xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

- yangi texnologiyalar yordamida banklar bilan iste'molchilar o'rtasidagi masofani qisqartirish;
- mijozlar bilan bank servislarini muntazam maslahat asosid tashkil qilish;
- an'anaviy banklar va professional tashkilotlar o'rtasida axborot texnologiyalari joriy qilish bo'yicha kollaborativ munosabatlar ishlab chiqish va o'rnatish;
- mijozlarni bank operatsiyalari o'tkazish yangi texnologiyalarini ishlab chiqish va foydalanishga jalb qilish.

Bank xizmatlarining innovasion turlarini bank tizimida faol joriy qilish uchun respublikada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish zarur bo'lib, buning uchun nafaqat investitsiyalar, balki raqamlashtirish sohasida bizdan o'zib ketgan mamlakatlar tajribalariga yo'nalganlik ham zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi, 24.01.2020 yil.
2. Internet of Things, IoT – qurilmalarni kompyuter tarmog'iga birlashtiradigan va ularga dasturiy ta'minot, amaliy dasturlar yoki texnik vositalardan foydalangan holda ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, qayta ishlash va boshqa obyektlarga uzatish imkonini beradigan texnologiya.
3. SZ Safoevna, MN Juraevna. [Analysis of economic efficiency of the use of irrigated land in agriculture and factors on them](#). Journal of Contemporary Issues in Business and Government. 2021. Том 27, Номер 2, Страницы 4055-4061.
4. [Sagdullaevna TF, Shoxo'jaeva Zebo Safoevna. Food provision of the population of the Republic of Uzbekistan in pandemy conditions: problems and solutions. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal – 2021/2.](#)
5. [Utkirovna MN, Shoxo'jaeva Zebo Safoevna Organizational and economic basis for the development of cotton and textile clusters. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal – 2021/2.](#)
6. ZS Shoxo'jayeva, M Norqobilov [Problems of rational use of water resources in agriculture of the Republic of Uzbekistan](#). - НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 2020.
7. SZ Safoevna, SM Mirjamilovich. [Development of entrepreneurship and improvement of organizational and economic bases of its state regulation](#). ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 2021. №3, 1186-1193.
8. ZS Shoxo'jaeva, DO Boqieva. [Ishlab chiqarish tarmoqlari samaradorligini oshirishda investitsiyalardan foydalanishning nazariy va iqtisodiy asoslari](#). International conferences on learning and teaching. 2022. №4, 513-519.